

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

**MAKTABLARDA INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK -
PSIXOLOGIK HAMROHLIK MASALALARI**

*Ro'zmurodov Jo'raqul Hamroqul o'g'li
Navoiy davlat pedagogika instituti magistranti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lif maktablarida inklyuziv ta'lif jarayonini amalga oshirishda pedagogik va psixologik yondoshuvlarning umumiy ta'siri o'rganilgan. Qolaversa ushbu yo'nalishdagi fikrlar o'rganilib umumlashtirilgan.

Kalit so'zlar: Alovida etibor talab qiladigan bolalar, ijtimoiy nofaol tushunchasi, inklyuziv maktab, inklyuziv ta'lif, koordinator, pedagogic jamoa, aqliy rivojlanish

KIRISH

Inklyuziv ta'lif amaliyoti tayanadigan bosh g'oya shundan iboratki, bu ta'lif alovida olingen har bitta o'quvchining o'ziga xos tomonlarini qabul qilishi va hisobga olishi kerak, demak ta'lifni har bir bolaning maxsus ehtiyojlarini qondiradigan tarzda tashkil etish lozim. Mavjud maxsus ta'lif tizimi amaliyoti shuni ko'rsatadi, individual yondashuv faqat zarur holatlardagina qo'llanadi. Inklyuziv maktablarda esa har bitta bola o'qishda yaxshiroq natijalarga erishish imkonini beradigan psixologik yordam, e'tibor, kerakli shart-sharoit bilan ta'minlangan bo'lishi lozim. Darhaqiqat bizning maktablarimiz inklyuziv muktab bo'lishi va ularda inklyuziv ta'lif olib borilishi bugungi kunning dolzarb yo'nalishidir. Yangi umumiy ta'lif dasturi alovida ehtiyojga ega bolalar muvaffaqiyatlari o'zlashtira olishi uchun qulay sharoitlarni yarata olishi va shunga mos o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Inklyuziv ta'lifning asosiy tarkibiy qismi sifatida va amalga oshirish borasida eng muhim elementlaridan biri bo'lgan psixologik-pedagogik hamrohlikdir.

Ta'lif muassasasi koordinatorlarining (yoki resurs o'qituvchilarining) faoliyatida aynan pedagogik-psixologik xamrohlik talab etiladi. Ta'lifda inklyuziv jarayonlarga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishda ta'lif muassasasidagi koordinatorlarning (yoki resurs o'qituvchilarning) faoliyati katta ahamiyatga ega. Ularning faoliyati asosan "alovida" bola va uning oilasini ta'lif tizimiga joriy etish jarayonini samarali boshqarishga qaratilgan bo'ladi. Inklyuziv ta'lif yo'liga qadam qo'yayotgan ta'lif muassasasining rahbariyati ta'lif jarayonining barcha qatnashchilari – ota-onalar, bolalar, pedagoglarning yangi sharoitga moslashuvi va hamkorligini ta'minlashi lozim. Bu o'rinda koordinatorning ma'muriy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- inklyuziv ta'lif sohasida pedagogik jamoa faoliyatining strategiyasi va taktikasini belgilash (tashkiliy komponentlar), inklyuziv ta'limga jalb qilingan hamma bolalarga bir xil e'tiborni ta'minlashda bor resurslardan samarali foydalanish;

- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar ehtiyojlarini tahlil qilish, bola rivojlanishining uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlarni, bola va uning oilasini qo'llab-quvvatlash strategiyasini belgilash. Inklyuziv ta'lif amaliyotining yana bir muhim masala bu rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolali oilalarga hamrohlik qilish xizmatini yaratish bilan bog'liq. Bunday bolaga ega har bitta oila psixologik-pedagogik yordamga muhtojligi o'z-o'zidan ayon. Chunki nogiron bolaning tug'ilishi, ayniqsa bu nogironlik og'ir shaklda bo'lsa, oilada og'ir psixologik vaziyatni yuzaga keltiradi: odadta ona ishini tashlaydi va ijtimoiy hayotdan chetlashib qoladi, butun oilaning ruhiy muhitni buziladi va pirovard natijada bolaning ijtimoiylashuvi qiyinlashadi. Bunday xizmatning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

Ilmiy elektron jurnali

- bolalarning shaxs sifatidagi, psixologik-jismoniy va aqliy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- bolalar rivojlanishidagi kamchiliklarni erta aniqlash va ularni bolalar davrasiga erta qo'shish;

- ota-onalar bilimlarini oshirish, nuqsonlarning oldini olish va korreksiyalash, bola va ota-onalar munosabatlarini o'rganish va korreksiyalash;

- umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish va ijtimoiy inklyuziya falsafasini qabul qilish. Oilalarga hamrohlik qilish xizmatining ish shakllari va yo'nalishlari turli-tuman bo'lishi mumkin: individual konsultatsiyalar va mashg'ulotlar, ota-onalar va mutaxassislarning talabi bo'yicha konsultatsiyalar, MTT mutaxassislari uchun individual va guruhli konsultatsiyalar.

Inklyuziv ta'limga amaliyoti mutaxassislardan yangi bilimlar va malakalarni talab qiladi. Bunday hollarda mutaxassislar nafaqat pedagogik va psixologik ta'limga va ish tajribasiga ega bo'lishlari, balki maxsus pedagogika va psixologiya kabi sohalarda ham yuqori kasbiy malakaga ega bo'lishlari talab qilinadi. Mana shuning uchun ham taklif etilayotgan yangi inklyuziv ta'limga modelini amalga oshirishda inklyuziv amaliyotga jalb qilingan ta'limga muassasalari mutaxassislarining psixologik-pedagogik xamroxlikni qilishlari ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Maktab o'quvchilari har xil darajada ta'limga oladilar va olingan bilimlaridan har xil darajada foydalanadilar. Shunga qaramay, ta'limga maqsadi barcha o'quvchilarning muayyan ijtimoiy maqomga ega bo'lishi va o'z ijtimoiy qadr-qimmatini qaror toptira olishga erishishdan iborat. Inklyuziya jismoniy va psixik rivojlanishida muammolari bo'lgan o'quvchilarda o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonch uyg'otish va bu bilan boshqa sog'lom bolalar – do'stlari, tengdoshlari bilan birga bitta muktabga borib o'qishga qodir ekanligiga ishontirish demakdir. Ta'limga olishda maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalar nafaqat alohida munosabat va yordamga muxtojlik sezadilar, balki o'z kuchlarini rivojlantirish, muktabda muvaffaqiyatga erishishlariga ishonch hosil qilishlarida ham yordamga muxtojlar. Inklyuziv ta'limga afzalliklarini ko'rsatadigan omillar.

Inklyuziv ta'limga qanday yo'l bilan ta'limga jarayonini har bitta shaxsga yaqinlashtirishga intiladi. Ta'limga jarayonida quyidagi metodlar va usullardan foydalanish tavsiya etiladi:

- faollikni rag'batlantiradigan eksperimental ta'limga metodlaridan foydalanish; - faol ta'limga metodlaridan, shu jumladan munozara, muloqotdan foydalanish;

- u yoki bu predmetning kalit tushunchalarini o'zlashtirishga ko'proq e'tibor qaratish;

- yangi materialni bosqichma-bosqich o'zlashtirish usulini qo'llash;

- badiiy adabiyot o'qishga ko'proq vaqt sarflash;

- o'quvchilarga vazifalarni bajarish uchun mas'ul ekanliklarini anglatish;

- o'quvchilarga ko'proq tanlash erkinligini berish;

- muktabda demokratik munosabatlar tamoyillarini joriy qilish;

- har bitta o'quvchining emotsional ehtiyojlari va o'zgarib turadigan xulq-atvor yo'siniga ko'proq e'tibor qaratish;

- sinfni jipslashtiradigan birlashtiruvchi faoliyat turlaridan foydalanish;

- umumiyligi ta'limga muktablarida tahsil olayotgan alohida e'tiborga muxtoj o'quvchilarga doimo psixologik yordam ko'rsatish;

- o'qituvchilar, ota-onalar, muktab ma'muriyati va boshqa manfaatdor tashkilotlar va jamoatchilikni hamkorlikka jalb qilish.

Demak, imkoniyati cheklangan bolalarga ko'rsatiladigan zamonaviy psixologikpedagogik yordam shakllari, usullari, texnologiyalarini qayta qurish umuman ta'limga maqsadlarini tubdan o'zgartirish va yangicha yo'naltirishni talab qiladi. Bu nimani bildiradi? Hozirgi vaqtgacha amal qilib kelayotgan ta'limga tizimi asosan ma'lum hajmdagi reproduktiv akademik bilimlarni berishga qaratilgan. Bu ta'limga tizimi qayta yo'naltirish talab qilinadi: bunda rivojlanishida turli

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

kamchiliklari bo‘lgan bolalarning ijtimoiy moslashuvi, kengroq ma’noda ijtimoiy abilitatsiyasi ustuvor o‘rin egallashi kerak. Inklyuziv ta’limning mohiyati va asosiy maqsadi ham aynan shu bilan belgilanadi. Bunday ta’lim butun ta’lim tizimining o‘zgarishi yo‘lida qo‘yilgan muayyan qadamlar bo‘lmog‘i lozim.

O‘qituvchining ta’limga inklyuziv yondashuvni amalga oshirishga psixologik tayyorligi deganda biz yuqori motivatszion imkoniyatni ta’minlashga imkon beradigan ijtimoiy, axloqiy, psixologik va kasbiy fazilatlar va qobiliyatlarning kombinatsiyasi bo‘lgan yaxlit, shaxsiy ta’limni tushunamiz. Biz inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun o‘qituvchilarни maqsadli tayyorlashning ustuvor jihatlarini kasbiy muhim sifat sifatida bag‘rikenglikni rivojlantirish, o‘quvchilarning ob’ektiv qiyofasini taqdim etish, turli toifadagi bolalar bilan o‘zaro munosabatlarning xususiyatlarini bilish deb hisoblaymiz. nogironlik, shuningdek, o‘qituvchilik amaliyoti davomida bunday bolalar bilan o‘zaro munosabatlarning shaxsiy tajribasini olish.

Adabiyotlar ro`yxati

1. Митчелл Дэвид. Эффективные педагогические технологии специального и инклюзивного образования (Использование научно-обоснованных стратегий обучения в инклюзивном образовательном пространстве). /Главы из книги, пер. - Аникеев И.С., Борисова Н.В. - М., РООИ "Перспектива", 2009.
2. Семаго М.М. Ребенок и образовательная среда: структурно-информационный подход. //Известия РАО. – 2006. – № 2 (июн). – С. 81-90.
3. «Образование без границ» www.edu-open.ru